

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMI:
KAMBAG'ALLIKNING KELIB CHIQISH OMILLARI VA SINFIY TUZILMA
ASOSIDAGI TAHLIL

Asqarova A

FarDU Sotsiologiya va Ijtimoiy ish kafedrası katta o'qituvchisi

O'zaro ijtimoiy aloqalar va maqsadlar kesishuvi natijasida vujudga keluvchi jamiyat tushunchasi hali zamonki o'z strukturasidagi muhim element va qismlari bilan fan tadqiqot markazida bo'lib turibdi.

Insoniyat kishilik jamiyatining rivojlanishi davomida turli davrlarni ko'rdi va ularning barchasida jamiyatda hukm surgan zamonga xos norma va qadriyatlarni o'ziga singdirdi.

Aynan har bir davrda hukm surgan o'ziga xos normalar, o'z davri uchun xos qadriyatlar me'yori, ular asosiga qurilgan sanksiyalar kishilik jamiyatining ayni tuzilish strukturasini belgilab bergan omil bo'lib xizmat qildi.

Har bir davrda jamiyat a'zolari hayot kechirish sharoitlarini qondirish haqidagina emas balki yanada to'kisroq va farovonroq qilish bo'yicha faoliyat olib bordilar. Ushbu faoliyatlar xususiyati va natijasi sifatida jamiyatning ma'lum tuzilish elementlari shaxs hayotida muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi. Ulardan biri - bu sinflardir.

Jamiyat a'zolarining turli qatlamlarga bo'linish vositasi va qonuniyatlari borasida ko'plab sotsiologlar o'z izlanishlarini olib borgan. Fanda bu faoliyat asoschilari sifatida K.Marks va M.Veberlar keltiriladi. Keyinchalik jamiyat sotsial stratifikatsiyasi borasida P. Sorokin ham ko'plab izlanishlar olib boradi.

Jamiyat kastalarga bo'linish jarayoni azaldan mavjud bo'lib keldi, ammo bu bo'linishlar bir muncha asos va xususiyatlar bilan bir biridan farqlanadi. Xususan, qadimgi davrda kishilik jamiyati "kastalar"ga bo'linishi bilan, so'ng "quldorlik" tuzumi, ilk o'rta asrlar jamiyatlarida "feodal" shakl, so'ng "tabaqalar" (dastlab qirollik oilasi va amaldorlar o'zlarini birinchi tabaqa deb atadilar, so'ng ruhoniylar ikkinchi tabaqa kishilari sifatida ko'rila boshlandi), va XIX asrdan e'tiboran yuzaga kelgan o'z davrining zamonaviy jamiyatlaridagi sinflar tushunchasi. Bul stratifikatsiya shakllari jamiyatda o'z xususiyatlari bilan harakterlanuvchi sotsial muhitni va jarayonlarni vujudga keltirdi. Buning natijalaridan biri sifatida jamiyat a'zolari orasida uchratish mumkin bo'lgan kambag'allik girdobidagi kishilarni ko'rsatish mumkin.

Qashshoqlikning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishda klassik sotsiologiya vakili E.Dyurkgeymning "Har bir sotsial jarayonki avvalo uning muhim ichki sotsial tuzilishini tashkil etuvchi sotsial muhitni aniqlash lozim" ⁸ yo'sinidagi qarashini hisobga olish lozim. Jamiyat hayotida, uning strukturaviy tuzilishida vujudga keluvchi o'zgarishlarga javob aynan jamiyatdagi sotsial muhitning o'zida. Xususan, K.Marks jamiyat a'zolarini sinflarga bo'linish jarayonida "ishlab chiqarish vositalari"ni asos qilib ko'rsatadi. Ya'ni ishlab chiqarish vositalariga munosabat unga egalik qilish bilan izohlansa ular -- yuqori sinf, ushbu vositani ishlatuvchilar - o'rta sinf (ishchilar) deya ta'riflanadi. Ayni ushbu jarayonda jamiyat

⁸ N.S.Aliqoriyev, R.T.Ubaydullayeva "Umumiy sotsiologiya" T. 1999-yil.12- bet.

a'zolarining ba'zilar ijtimoiy va iqtisodiy murakkabliklar orasida qolishi kuzatilishi ham kambag'allik asorati tomon yo'l hisoblanadi. Ushbu jarayonda boyib ketish, o'zining yirik kapitalga ega faoliyatini yo'lga qo'yishdagi imkoniyatlari jihatidan quyi sinf vakillarining yuqori sinf a'zolaridan ko'ra kamroq manba va moddiy resursga egaligini ham hisobga olish o'rinni. Zero, o'tkazilgan sotsial tadqiqotlar ayni davr jamiyatida ham (qanchalik shaffof bo'lmasin) dastlabki sarmoya va kapitalga ega bo'lmagan shaxs o'z muvaffaqiyatini qurish foizlarida yuqori sinf vakillaridan ko'ra kamroq natija ko'rsatishi kuzatilgan. Xususan, XX asr o'rtalarida Buyuk Britaniyada biror yirik korxonaga rahbar bo'lish imkoniyati 55 millionlik aholining atiga 2-3 mingga nasb etish ehtimoli mavjudligi ta'kidlanadi,⁹ albatta, bu faqat qashshoqlik girdobidagilar emas balki butun aholi uchun tegishli fakt.

Kambag'allik asoratlarini jamiyatda mavjud sinflar bilan bir qatorda jamiyat ko'rinishlari bilan ham bog'lab tahlil qilib chiqish mumkin. Bunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari alohida e'tiborga molik: O'tgan asrlar davomida sotsiologlar g'arbdagi yirik iqtisodiyotli davlatlar holatini aks ettiruvchi jamiyat ko'rinishini ishlab chiqdilar (konsepsiyasini desak ham bo'ladi). Ularning biri "Umumiy mo'l ko'lchilik" ikkinchisi esa "Iste'mol qilish" jamiyati deya nom oldi.

Umumiy mo'l-ko'lchilik jamiyati-ku tushinarli lekin ikkinchi ko'rinishga to'xtalib o'tsak. Iste'mol qilish jamiyatida katta ro'lni davlat o'z qo'lga olishi kuzatildi. Zero, kambag'allarni iste'mol zarurlari bilan ta'minlash asosiy vazifaga aylanadi. Jamiyat ko'rinishlarini quyidagicha yana davom ettirish mumkin: "sanoatlashgan" va "postindustrial" jamiyatlar. Ushbu jamiyat ko'rinishlarining ham ijtimoiy muhitga sezilarli ta'siri mavjud. Xususan, konsepsiyasi Amerikalik sotsiolog D.Bell tomonidan yaratilgan postindustrial jamiyatda asosiy muammo sanoatlashgan jamiyat va ungacha bo'lgan davrlardagi kabi moddiy resurslar mojarolarning asosiy markazida emas endi asosiy mojarolar "intellektual mulk" va "kuchli bilimga ega emaslik" borasida kechishi ta'kidlanadi.¹⁰ Bu kabi jamiyat ko'rinishi ko'zga tashlana borayotgan davlatlardan Yaponiyani keltirib o'tish mumkin. Ko'plab mutaxassislarining fikricha Yaponiya yaqin davrlar ichida "umumiy oliy ta'lim tizimi"ga o'tish arafasida turibdi. Bundan xulosa qilish qiyin emas, bu kabi jamiyatda kambag'allik girdobi qay darajada iqtisodiy bo'lishi ham fanda izchil olib borilayotgan izlanishlar markazida deyish mumkin.

Qashshoqlik masalasi har bir mamlakatda kuzatiladi. Zero, rivojlangan industrial jamiyatlarda ham bu muammoga to'la yechim berilmagan.

XIX asrda Buyuk Britaniya o'zining yuqori darajadagi qiyofasiga ega bo'la boshladi. Ayni shon-shuxrat davrida mamlakatda "Yorug'likka yo'l ham Angliya zulmatlarida" nomli asar paydo bo'ladi va unda dunyoning eng yirik va gegemon shaxarlaridan biri Londonda aholining uchdan bir qismi qashshoq ekanligi yoritildi.

XX asr 50 yillarida esa dunyoning eng qudratli davlati bo'lib turgan AQShda ham Xarrington tomonidan "Yana bir Amerika" yoki "Ikkinchi Amerika" nomi ostida asar yaratiladi. Unda 50 million atrofida Amerika aholisi qashshoq deya ta'kidlanadi.¹¹ Bu Amerika hukumatini oyoqqa turg'azdi va Prezidentlar Lindon hamda Jonsonlar davrida

⁹ E.Giddens.Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/Tarj. N.Mamatov va J.Begmatov, - T. Sharq. 2002.

¹⁰ N.S.Aliqoriyev, R.T.Ubaydullayeva "Umumiy sotsiologiya" T. 1999-yil. 64- bet.

¹¹ E.Giddens.Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/Tarj. N.Mamatov va J.Begmatov, - T. Sharq. 2002.

ijtimoiy sohaga hech bir davlatda bo'lmagan e'tibor beriladi. Bu faoliyatlar biz yuqorida ta'kidlab o'tgan "Iste'mol qilish" jamiyati prinsplari sifatida amalga oshdi deyish ham mumkin. Zero, bu davrda davlat ko'p sohalarni o'z qo'liga oladi (ijtimoiy ko'mak masalalarida). Xususan, Jonson o'z prezidentligi davrida "ijtimoiy hissiyotlarga" (o'sha davrda ayni faoliyatlar shunday nomlandi) harajatni 400 barobarga oshirdi. Bu davrda Amerikada "Kasbga qayta tayyorlash", "Job Centre" kabi markazlar bo'y ko'rsatdi. Ularning asosiy maqsadi ishsiz, kambag'al qatlam vakillarini jamiyatda talab kuchli bo'lgan kasblarga o'qitish bo'ldi.

Bu harakatlar samarasiz ketmadi, albatta, mamlakatda qashshoqlik girdobidagilar sonini taxminan 26 milliongacha tushirishga erishilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, faqatgina iqtisodiy yechimlarni o'ylab ish ko'rish qashshoqlikka to'la barham beruvchi vosita bo'la olmaydi.

Hech bir jamiyat a'zosi qisqa muddat oralig'ida qashshoqlik girdobiga tushib qolmaydi (kichik istisnolarni aytmaganda). Bunga jamiyatda hukm surgan sotsial muhit, jarayonlarning bergan ta'siri yoki shu bilan birga jamiyatning tuzilish shakli, unda amal qilayotgan yoki avval amal qilingan normalar kabi bir qator omillar sabab bo'ladi.

Davlatlarni avvallari ham qashshoqlikning boshlanish chizig'i o'ylantirgan. Aytaylik qashshoqlik deyish uchun kishi aynan qanday holatda yoki bosqichda bo'lishi kerak?! Butun dunyo uchun umumiy qashshoqlikni o'lchovchi chegara bo'lmagan. Bu esa qashshoqlik asoratlariga barham berishdagi yirik muammolardan biridir. Ammo mamlakatlarning ba'zilar o'zlari uchun qashshoqlikni aniqlovchi asos vositani belgilaganlar. Xususan, Buyuk Briytaniyada qo'shimcha nafaqa olishga asos bo'luvchi maoshdan ham kam haq oladiganlar qashshoqlik chizig'ida yoki qashshoqlik deya hisoblangan.

2020-yilda qashshoqlik masalasi bizning jamiyatimizda ham barham berilishi kerak bo'lgan muammo sifatida ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4653-sonli Qaroriga asosan joriy yil 26 mart sanasida mamlakatimizda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. Keyinchalik, 2022-2023 yillarda vazirlik tarkibi va nomi o'zgarib, hozirda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi sifatida faoliyat yuritmoqda. Hukumatda bu masala bilan aniq choralar bilan kurashuvchi tizimining bo'lishi yaxshi ibtido hisoblanadi. Hozirgi kunda vazirlik makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, tarkibiy o'zgarishlar, kambag'allikni qisqartirish, kichik biznesni rivojlantirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Vazirlikning hozirgi kundagi faoliyati quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Kambag'allikni qisqartirish: Aholini tadbirkorlikka jalb qilish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash orqali kambag'allik darajasini kamaytirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar.
- Makroiqtisodiy barqarorlik: Yalpi ichki mahsulot o'sishini ta'minlash, inflyatsiya darajasini nazorat qilish va iqtisodiy siyosatni prognozlash.
- Hududiy rivojlanish: Mahallabay ishlash tizimi orqali har bir tumanning iqtisodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, investitsiyalarni jalb qilish.
- Tarkibiy islohotlar: Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish va bozor mexanizmlarini kengaytirish.

2023-yildan boshlab vazirlik tarkibi va vazifalari "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyot va moliya vazirliklarining birlashtirilishi natijasida yangi tuzilmaga (Iqtisodiyot va moliya vazirligi) integratsiya qilingan bo'lsa-da, kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy rivojlanish asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, kambag'allik - bu faqatgina iqtisodiy asosga ega muammo emas. Uning asosiy ildizi jamiyatdagi uzoq muddatli jarayonlar va sotsial muhit ta'sirida vujudga kela boshlaydi. Jamiyat a'zolari orasidan kambag'allik muammosini bartaraf etish uchun esa uzviy tarzda quyidagilarni taklif sifatida keltirib o'tish mumkin:

Avvalo kambag'allikni aniqlashning aniq va asosli mezonini ishlab chiqish, ushbu mezon asosida aniqlangan jamiyat a'zolarini hududlar kesimida tahlil qilish (asosiy qismining yosh toifasi, ko'proq qayasi hududga to'g'ri kelishi), iqtisodiy yordam bilan cheklanib qolmay, ushbu holatni keltirib chiqargan ijtimoiy omilni aniqlash va uni qayta ko'rib chiqish, jamiyatga moslash mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan va bu muammoga qarshi samarali kurash olib borayotgan davlatlar tajribasidan mos andozalarni olish. Albatta, ushbu choralar aniq vosita va metodologiyalar bilan qat'iy asosda olib borilsagina o'z samarasini beradi. Bu borada butun insoniyat uchun umumiy jihat qashshoqlikning mavjudligi bo'lsa, maxsus jihati har bir jamiyatda uning o'ziga xos kelib chiqish sababi va unga beriladigan yechimlarning jamiyat normalaridan kelib chiqib harakterlanishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.S.Aliqoriyev, R.T.Ubaydullayeva "Umumiy sotsiologiya" T. 1999-yil.
2. E.Giddens.Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/Tarj. N.Mamatov va J.Begmatov, - T. Sharq. 2002.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti. mineconomy.uz